



## MARKAZIY OSIYODA XORIJIY INVESTITSIALARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

**Butayev Javlonbek**  
**Inatillo o'g'li**

*TDIU katta o'qituvchisi*

**Sobirov Bexzod**  
**Maqsudbek o'g'li**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi,*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida xorijiy investitsiyalar oqimining shakllanishi, rivojlanish tendensiyalari va ularning iqtisodiy o'sishdagi o'rni tahlil qilingan. So'nggi yillarda mintaqa mamlakatlarining ochiq iqtisodiyotga o'tishi, normativ-huquqiy bazani isloh qilish va investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar xorijiy kapitalning jalb etilishiga yaxshi ta'sir ko'rsatmoqda. Maqolada mavjud statistik ma'lumotlar asosida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlarida xorijiy investitsiyalarning hajmi va tarkibi, yetakchi investitsiya yo'nalishlari, asosiy investor mamlakatlar tahlil etiladi. Shuningdek, mintaqaviy integratsiya jarayonlari va geosiyosiy omillarning investitsiya muhiti shakllanishiga ta'siri muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida Markaziy Osiyo mamlakatlarida xorijiy investitsiyalarni yanada rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:**

Xorijiy investitsiyalar, Markaziy Osiyo, iqtisodiy rivojlanish, investitsiya muhiti, kapital oqimi, iqtisodiy integratsiya, investorlar, investitsiya siyosati, infratuzilma, tahlil.

### Kirish.

So'nggi o'n yilliklar davomida globallashuv jarayonining jadallashuvi, xalqaro moliyaviy tizimlarning integratsiyalashuvi va sarmoya oqimlarining erkinlashuvi natijasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar uchun asosiy iqtisodiy o'sish manbalaridan biriga aylandi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mintaqalar, jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari, xorijiy investitsiyalar orqali iqtisodiy modernizatsiyani ta'minlash, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish va yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasi – geografik joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi, keng demografik salohiyati va rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti bilan dunyo investorlari e'tiborida turgan strategik hududlardan biridir. Mintaqani tashkil etuvchi davlatlar – Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Tojikiston o'zining mustaqillik davrida turli iqtisodiy yo'llarni tanlagan bo'lsa-da, ularning barchasi FDI jalb etishni iqtisodiy siyosatning muhim elementi sifatida ko'rib

kelmoqda. Shu sababli, ushbu mintaqada xorijiy investitsiyalarning rivojlanish dinamikasi, tuzilmasi va taqsimoti chuqur tahlil va tadqiqot talab etadi.

Xususan, so‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotining liberallasuvi, Qozog‘istonning xomashyo eksportiga tayangan investitsiya siyosati, shuningdek, kichik iqtisodiyotlar – Qirg‘iziston va Tojikistonning xorijiy yordam va grantlarga bo‘lgan qaramligi mintaqada FDI oqimlarining notekis taqsimlanishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari, mintaqadagi siyosiy barqarorlik, huquqiy muhit, investorlar uchun yaratilayotgan preferensiyalar va soha bo‘yicha davlat siyosatining aniq yo‘nalishlari xorijiy investorlarning qarorlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Aynan shu omillarni chuqur o‘rganish, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish, mintaq bo‘yicha aniq statistik ko‘rsatkichlar asosida FDI tendensiyalarini baholash ushbu maqolaning asosiy maqsadidir. Maqolada, shuningdek, xorijiy sarmoyaning yalpi ichki mahsulotga nisbati, sohalar bo‘yicha taqsimoti, asosiy investor davlatlar, yillik o‘zgarishlar va mintaqaviy raqobat ustunliklari batafsil ko‘rib chiqiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar sharhi.**

Mazkur tadqiqotda xalqaro tashkilotlar, davlat idoralari, mustaqil tahlil markazlari tomonidan taqdim etilgan statistik va tahliliy manbalar asos qilib olindi. Jahon banki, UNCTAD (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi), IMF (Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi), va Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB)ning hisobotlari asosiy axborot manbalari sifatida xizmat qildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Qozog‘iston Respublikasi Milliy iqtisodiyot vazirligi va boshqa mintaqaviy statistik organlarning ma‘lumotlari asosida so‘nggi yillardagi investitsiya oqimlari, soha kesimidagi investitsiyalar hajmi va ularning manbalari o‘rganildi.

Ilmiy adabiyotlar orasida xorijiy va mahalliy olimlarning asarlari – xususan, G. Ibragimova, D. Karimov, T. Nurmatov, hamda xorijiy ekspertlar – D. Lane, R. Pomfret va boshqalarning Markaziy Osiyodagi iqtisodiy transformatsiya, investitsiya muhiti va davlat siyosati haqidagi tadqiqotlari muhim o‘rin egallaydi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotda kompleks yondashuv asosida qo‘llanilgan metodlar:

1. **Statistik tahlil** – xorijiy investitsiyalar hajmi, tarkibi, mamlakatlar bo‘yicha taqsimoti, vaqt oralig‘idagi o‘zgarishlar.
2. **Taqqoslovchi tahlil** – mintaq davlatlari o‘rtasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish darajasi va ularga ta‘sir qiluvchi omillarni solishtirish.
3. **Kontent-tahlil** – normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va strategik konsepsiyalarni o‘rganish orqali investitsiya siyosatining tahlili.
4. **Ekspert baholash** – mavjud investitsion siyosat va amaliyotlarga oid ekspertlar fikrlari asosida baho berish.

Tadqiqot obyekti sifatida Markaziy Osiyo davlatlari ya‘ni, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston olingan. Subyekt sifatida esa xorijiy investorlar (xususan Xitoy, Rossiya, AQSH, Janubiy Koreya va Yevropa Ittifoqi davlatlari) faoliyati tahlil qilindi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Markaziy Osiyo mintaqasi so‘nggi yillarda iqtisodiy o‘shish va islohotlar bilan bir qatorda, xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida sezilarli natijalarga erishmoqda. Xususan, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston va Tojikiston singari davlatlar iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, huquqiy bazani takomillashtirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish orqali investitsion jozibadorlikni oshirmoqda.

Quyida mintaqadagi asosiy tendensiyalarni ifodalovchi bir nechta statistik jadval keltirilgan. Ushbu jadval va tahlillar asosida Markaziy Osiyoda investitsiya oqimining qaysi yo‘nalishda rivojlanayotgani, qaysi davlatlarda yuqori sur‘atlar kuzatilayotgani haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin.

1-Jadval.

**Markaziy Osiyoda FDI oqimi (2020–2024, mlrd AQSH dollari) [1], [2]**

| Davlat              | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
|---------------------|------|------|------|------|------|
| <i>Qozog‘iston</i>  | 17.1 | 23.7 | 28.3 | 30.1 | 32.5 |
| <i>O‘zbekiston</i>  | 5.2  | 7.1  | 8.9  | 10.4 | 11.7 |
| <i>Turkmaniston</i> | 3.8  | 4.2  | 4.5  | 5.0  | 5.4  |
| <i>Qirg‘iziston</i> | 0.9  | 1.1  | 1.3  | 1.5  | 1.7  |
| <i>Tojikiston</i>   | 0.6  | 0.7  | 0.9  | 1.0  | 1.2  |

Yuqoridagi 1-jadvalda Markaziy Osiyo davlatlarida 2020-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan xorijiy investitsiyalar oqimi miqdori aks ettirilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Qozog‘iston eng ko‘p investitsiya jalb qilgan davlat hisoblanadi, O‘zbekiston esa keyingi o‘rinda turibdi. Ushbu jadvaldan ko‘rinadiki, barcha davlatlarda yildan-yilga o‘shish kuzatilmoqda.

2-Jadval.

**O‘zbekistonda FDI taqsimoti sohalar bo‘yicha (2024, % hisobida) [1]**

| Soha                                        | Ulash (%) |
|---------------------------------------------|-----------|
| Sanoat (neft-gaz, kimyo, avtomobilsozlik)   | 43%       |
| Energetika (elektr, quyosh, gaz energiyasi) | 25%       |
| Qurilish                                    | 10%       |
| Qishloq xo‘jaligi va oziq ovqat sanoati     | 8%        |
| Xizmatlar (moliyaviy, bank, sug'urta)       | 14%       |

2-jadval. Mazkur rasmiy statistikaga ko‘ra, 2024-yilda **xorijiy investitsiyalarning yirik qismi (43%) sanoat sohasiga** yo‘naltirilgan bo‘lib, bu O‘zbekiston sanoat infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilgan siyosat samarasidir. Neft-gaz va avtomobilsozlik sektori eng yirik investitsion oqimlarni qabul qilmoqda.

**Energetika sohasi** 25% ulush bilan ikkinchi o‘rinda turadi. Bu ko‘rsatkich quyosh va boshqa muqobil energiya loyihalariga xorijiy sarmoyadorlar tomonidan qiziqish ortib borayotganini ko‘rsatadi. **Moliyaviy xizmatlar sektori** ham sezilarli o‘shishga erishib, 14% ulushni tashkil etdi. **Qurilish** sohasi 10% ulush bilan mintaqaviy infratuzilma, turar joy va sanoat zonalari rivojlanishini qo‘llab-quvvatlamoda.

**Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati** esa 8% ulushga ega bo'lib, bu sohada texnologik yangilanishlar va eksport yo'nalishlari rivojlanmoqda.

### 3-Jadval.

#### Markaziy Osiyoga asosiy investor davlatlar (2024) [1], [8]

| Davlat         | FDI ulushi (%) | Asosiy yo'nalishlar                                   |
|----------------|----------------|-------------------------------------------------------|
| Xitoy          | 22.5%          | Infratuzilma, energetika, temir yo'l, sanoat zonalari |
| Rossiya        | 18.3%          | Neft-gaz, qurilish, bank sektori                      |
| Janubiy Koreya | 13.7%          | Avtomobilsozlik, IT, elektrotexnika                   |
| Turkiya        | 11.9%          | Qurilish, savdo, yengil sanoat                        |
| AQSH           | 10.6%          | Energetika, texnologiya, qishloq xo'jaligi            |

3-jadval. Ushbu jadvalda Markaziy Osiyoga eng ko'p investitsiya kiritayotgan 5 ta davlat ko'rsatilgan bo'lib:

- ✚ **Xitoy** yetakchilik qilmoqda. Bu davlat asosan "Bir kamar — bir yo'l" tashabbusi doirasida infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirmoqda. Temir yo'l liniyalari, avtomobil yo'llari va sanoat parklariga katta hajmda sarmoya ajratmoqda.
- ✚ **Rossiya** tarixiy va geosiyosiy yaqinlik sababli energetika va qurilish sohalarida faol investitsion ishtirokga ega.
- ✚ **Janubiy Koreya** texnologik bazaga ega mamlakat sifatida mashinasozlik, IT va avtomobil sanoatida yirik loyihalarga hissa qo'shmoqda.
- ✚ **Turkiya** esa savdo va logistika markazlari orqali investitsiyalarni yo'naltirib, regional aloqalarni kuchaytirmoqda.
- ✚ **AQSH** kabi rivojlangan davlatlar ko'proq yuqori texnologiyali va barqarorlikni ta'minlovchi tarmoqlarga sarmoya kiritmoqda.

### 4-Jadval.

#### Markaziy Osiyoda FDI / YAIM nisbati (2023, % hisobida) 1, 2

| Davlat       | FDI/YAIM (%) |
|--------------|--------------|
| Qozog'iston  | 10.3%        |
| O'zbekiston  | 6.7%         |
| Turkmaniston | 5.4%         |
| Qirg'iziston | 3.8%         |
| Tojikiston   | 2.9%         |

Qozog'iston Markaziy Osiyoda eng yirik iqtisodiy imkoniyatlarga ega davlat bo'lib, chet el investorlari uchun eng jozibali bozor hisoblanadi. 2023-yilda FDI / YAIM nisbati **10.3%** bo'lib, bu butun mintaqada eng yuqori ko'rsatkichdir. Bunga quyidagi omillar sabab:

- Neft, gaz, kon sanoatining yirik ulushi.
- Strategik transport va logistika infratuzilmasining mavjudligi.

- Investitsiyalarni himoya qilish bo'yicha xalqaro shartnomalar va huquqiy islohotlar.

Shuningdek, Qozog'istonning 2023-yilda qabul qilingan "Yangi investitsiya strategiyasi" xorijiy investorlar uchun kafolatlar va preferensiyalarni oshirdi. O'zbekiston 2017-yildan boshlab amalga oshirayotgan iqtisodiy ochiqlik va erkin bozor islohotlari natijasida FDI hajmi sezilarli oshib bormoqda. 2023-yilda FDI / YAIM nisbati **6.7%** bo'lib, bu ko'rsatkich oxirgi besh yildagi eng yuqori darajadir. Investitsiyalar asosan quyidagi sohalarga yo'naltirilmoqda:

- Energetika (quyosh, gaz, issiqlik)
- Sanoat (avtomobilsozlik, elektrotexnika)
- Bank-moliya sektori va IT xizmatlar

Shuningdek, maxsus iqtisodiy zonalar, xususiylashtirish va yer islohotlari xorijiy kapitalni jalb qilishda muhim omil bo'ldi. Turkmanistonda FDI nisbati **5.4%** atrofida. Davlat tashqi sarmoyalarni asosan gaz infratuzilmasiga jalb qilmoqda. Xususan:

- TAPI gaz quvuri
- Galkinish neft va gaz loyihalari
- Eron, Xitoy, Hindiston bozorlariga chiqish loyihalari

Biroq, umumiy yondashuvning yopiq va davlatga bog'liq bo'lishi ko'plab investorlar uchun xavfli deb baholanmoqda. Qirg'izistonda FDI / YAIM nisbati **3.8%** ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich, asosan quyidagi yo'nalishlarga bog'liq:

- Tog'-kon sanoati (oltin, ruda)
- Gidroenergetika
- Xalqaro donorlar va kreditlar orqali moliyalashtiriladigan infratuzilma loyihalari.

Yuqori xavfsizlik xavflari, siyosiy beqarorlik va nizolar FDI jalb etilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mintaqadagi eng past ko'rsatkich Tojikistonga to'g'ri keladi – **2.9%**. Investitsiyalar ko'p hollarda:

- Xitoy sarmoyalari orqali elektroenergetika
- BMT va boshqa donor tashkilotlari ishtirokidagi ijtimoiy loyihalar
- Xususi kichik biznes va mikrokreditlar orqali amalga oshiriladi

Investitsion muhit hali ham zaif, huquqiy kafolatlar yetarli emas.

### **Xulosa va takliflar**

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyoda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Ammo bu borada mavjud bo'lgan tizimli muammolar hal qilinmasa, uzoq muddatli investitsion barqarorlikka erishish qiyin bo'ladi. Xorijiy investitsiyalar mintaqa iqtisodiyotining strategik rivojlanish omili hisoblanadi. O'zbekiston va Qozog'iston yetakchi pozitsiyani egallab kelmoqda. Sanoat tarmoqlari bilan bir qatorda xizmat ko'rsatish va logistika sohalariga ham e'tibor kuchaymoqda.

Quyida bir qator tavsiyalarni keltiramiz:

mintaqaviy investitsiya siyosatini muvofiqlashtirish orqali yagona bozor prinsiplari asosida rivojlanish;

sud-huquq tizimini mustahkamlash va investorlarning huquqiy kafolatlarini ta'minlash;

davlat-xususi sheriklik loyihalarini kengaytirish;

yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish kabilardir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. UNCTAD World Investment Report 2024.
2. Jahon banki: Global Economic Prospects (2024).
3. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hisobotlari.
4. Qozog‘iston Respublikasi Milliy iqtisodiyot vazirligi statistik ma’lumotlari.
5. Lane D. (2020). “Global Capital and Central Asia: Economic Dependencies”.
6. Ibragimova G. (2022). “Markaziy Osiyoda investitsion muhit va uning transformatsiyasi”.
7. IMF Regional Economic Outlook (2024).
8. Osiyo Taraqqiyot Banki: Central Asia Regional Economic Cooperation (CAREC) Program Reports.